



KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIK: NAZARIY ASOSLAR VA RIVOJLANISH YO'NALISHLARI

PhD, dots. **Sobirov Abdurasul**

Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti

ORCID: 0009-0005-1365-5932

asobirov0783@gmail.com,

asobirov@mail.ru

Annotatsiya. Mazkur ilmiy tezisdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning nazariy asoslari, iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini hamda zamonaviy sharoitlarda rivojlanish yo'nalishlari tadqiq qilingan. Tadbirkorlik faoliyatining mohiyati, tarixiy rivojlanishi va kichik biznes subyektlarining iqtisodiyotdagi ahamiyati ilmiy adabiyotlar asosida tahlil qilingan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy omillari, davlat qo'llab-quvvatlash mexanizmlari hamda sohani takomillashtirish masalalari o'rganilgan. Tadqiqot natijalari kichik biznes va tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotini modernizatsiya qilish, yangi ish o'rinlarini yaratish va aholi turmush darajasini oshirish jarayonlaridagi muhim o'rnini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: kichik biznes, tadbirkorlik, iqtisodiy rivojlanish, innovatsiya, davlat qo'llab-quvvatlash, eksport salohiyati, ishbilarmonlik muhiti.

МАЛЫЙ БИЗНЕС И ПРЕДПРИНИМАТЕЛЬСТВО: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ

PhD, доц. **Собиров Абдурасул**

Институт общественных и политических наук

Аннотация. В данном научном тезисе исследованы теоретические основы малого бизнеса и частного предпринимательства, их роль в экономическом развитии, а также направления их развития в современных условиях. На основе научной литературы проанализированы сущность и историческое развитие предпринимательской деятельности, а также значение субъектов малого бизнеса в экономике. Изучены основные факторы развития малого бизнеса и частного предпринимательства, механизмы государственной поддержки и вопросы совершенствования отрасли. Результаты исследования показывают важную роль малого бизнеса и предпринимательства в модернизации национальной экономики, создании новых рабочих мест и повышении уровня жизни населения.

Ключевые слова: малый бизнес, предпринимательство, экономическое развитие, инновации, государственная поддержка, экспортный потенциал, деловая среда.

SMALL BUSINESS AND ENTREPRENEURSHIP: THEORETICAL FOUNDATIONS AND DEVELOPMENT DIRECTIONS

PhD, assoc. prof. **Sobirov Abdurasul**
Institute of Social and Political Sciences

Abstract. *This scientific thesis explores the theoretical foundations of small business and private entrepreneurship, their role in economic development, and the directions of their growth under modern conditions. The essence and historical evolution of entrepreneurial activity, as well as the significance of small business entities in the economy, are analyzed based on scientific literature. The main factors of small business and private entrepreneurship development, mechanisms of state support, and issues of sectoral improvement are examined. The research results demonstrate the crucial role of small business and entrepreneurship in modernizing the national economy, creating new jobs, and improving the population's standard of living.*

Keywords: *small business, entrepreneurship, economic development, innovation, state support, export potential, business environment.*

Kirish.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik zamonaviy bozor iqtisodiyotining asosiy tarkibiy qismi hisoblanadi. Mustaqillik yillarida O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib kelmoqda. Sohoni rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 50 dan ortiq farmon va qarorlari, qator qonunlar qabul qilingan. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotni rivojlantirish, aholi bandligi va daromadlarini oshirishning muhim omillaridan biridir (Arxiv, 2024). Mazkur soha iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlarini modernizatsiyalash va yangilash, tarkibiy o'zgarishlar va diversifikatsiya jarayonlarini amalga oshirishda muhim rol o'ynaydi (Gov, 2024).

Schumpeter innovatsiya nazariyasiga ko'ra, tadbirkor bozorlarni "ijodiy buzilish" orqali o'zgartiruvchi vosita hisoblanadi. Endogen o'sish nazariyasi esa kichik bizneslarni bilim va texnologiya sochqini (knowledge spillover) orqali iqtisodiy o'sishga hissa qo'shuvchi muhim sub'ekt deb oladi. Shu bilan birga, institutsional iqtisodiyot nazariyasi kichik biznes muvaffaqiyati uchun huquqiy asoslar, mulk huquqlari va bozor infratuzilmasining ahamiyatini ta'kidlaydi. Siyosat nuqtai nazaridan "rag'bat muhiti" modeli kichik biznes rivoji uchun byurokratik va moliyaviy to'siqlarni bartaraf etish lozimligini ko'rsatadi. Shunday qilib, iqtisodchilarning an'anaviy va zamonaviy fikrlarida tadbirkorlik va kichik biznesning jamiyatda ijodiy roli va barqaror o'sishga hissa qo'shishi qayd etilgan

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodiyot fanida tadbirkorlik faoliyatiga doir dastlabki tadqiqotlar XVIII asrda Kontilon, Tyurgo, Kene, Smit va Sey asarlarida amalga oshirila boshlandi (Xudoyberdiyev, 2016). Richard Kontilon (1680-1734) tadbirkorlikni xavf-xatar va tavakkalchilik bilan bog'lab, uni iqtisodiy faoliyatning alohida ko'rinishi sifatida ko'rib chiqqan va "iqtisodiyot otasi" deb tan olingan (Bozorova, 2024). Hozirgacha jamoatchilik fikrida "tadbirkorlik" tushunchasining ko'p ma'noliligi saqlanib qolmoqda (Xudoyberdiyev, 2016). Ilmiy adabiyotlarda tadbirkorlikka turli yondashuvlar mavjud bo'lib, ba'zi olimlar uni tavakkalchilik bilan izoxlaydilar (Mirzayev, 2019). Ammo tavakkalchilik faoliyatga emas, balki shaxsga nisbatan ishlatilishi lozim va bu ayniqsa yuqori innovatsion tadbirkorlikka xosdir. Tarixda tavakkalchilik asosida innovatsion texnologiyalarga asoslangan o'zining kichik biznesini boshlab, butun dunyoga mashhur bo'lgan shaxslar orasida G. Ford, B. Geyts kabi tadbirkorlarni keltirish mumkin (Mirzayev, 2019).

Tadbirkorlik bu foyda olish maqsadida ma'lum bir mahsulot ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatishdir (Arxiv, 2024). Tadbirkorlik faoliyati ijodkorlik, innovatsiyalar joriy etish va iqtisodiy resurslarni samarali boshqarish qobiliyatini taqozo qiladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlari zamonaviy iqtisodiyotda bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. Birinchidan, kichik biznes aholini ish bilan ta'minlashda, ayniqsa yoshlarni ish bilan bandligini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash va yangi ish o'rinlarini yaratish orqali mehnat qilish huquqlarini amalga oshirishlari va iqtisodiy mustaqillikka erishishlari uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi (Xudoyberdiyev, 2016). Ikkinchidan, kichik biznes sub'yektlarining ko'plab faoliyat olib borishi bozorda sog'lom raqobatni ta'minlaydi va raqobat muhitini shakllantiradi (Bozorova, 2024). Uchinchidan, kichik korxonalar yangi texnologiyalar va mahsulotlarni tezkor joriy etish imkoniyatiga ega bo'lib, innovatsiyalarni joriy etishda muhim ahamiyatga ega (Sodiqova, 2024). To'rtinchidan, kichik biznes hududlarning iqtisodiy rivojlanishiga, shahar va qishloq joylarni rivojlantirishga ko'maklashadi (Ro'ziyev, 2020).

Xorijiy tajriba ko'rsatadiki, kichik biznes korxonalari eksportining asosini texnologiyalar savdosi tashkil etadi. Jumladan, AQShda sotilgan litsenziyalarning 50 foizi kichik korxonalarga to'g'ri keladi (Sodiqova, 2024). Xalqaro tadbirkorlik (International Entrepreneurship) bo'yicha tadqiqotlar kichik tadbirkorlik firmalarining xalqaro biznesda muhim rolini ko'rsatadi, ayniqsa globallashtirish bosimi kichik firmalarni xalqaro bozorlarga kirishga undaydi (Jones, 2011). Kichik biznesning xalqaro savdo va innovatsion faoliyatdagi o'ri tobora oshib borayotganligi ilmiy tadqiqotlarda tasdiqlangan (McDougall, 2000).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqola adabiyotlarni sharhlash va statistik tahlil metodlariga asoslangan tavsifiy-tahliliy tadqiqot hisoblanadi. Tadqiqot doirasida 2013–2023 yillar oralig'ida kichik biznes va tadbirkorlik bo'yicha mavjud ma'lumotlar o'rganildi. Ma'lumotlar manbalari sifatida O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining rasmiy ko'rsatkichlari, Jahon banki va BMT hisobotlari, shuningdek 2017-yil PF-4947 sonli Prezidentimiz farmoni, 2020-yilgi soliq kodeksi va iqtisodiy rivojlanish dasturlari kabi rasmiy hujjatlar tanlandi. Taqqoslash usuli yordamida O'zbekistonlik kichik biznes tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy o'sish dinamikalari tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish maqsadida keng qamrovli davlat dasturlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, "Hududlarda aholini tadbirkorlikka keng jalb qilish va oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" (2019 yil 9 mart, PQ-4231-son), "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish to'g'risida" (2018 yil 5 may, PQ-3697-son), "Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish davlat dasturlari doirasida amalga oshirilayotgan loyihalarni kreditlash tartibini takomillashtirish qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida" (2019 yil 25 oktyabr, PQ-4498-son) kabi muhim qarorlar qabul qilingan.

Kichik biznes sub'yektlarini qo'llab-quvvatlash maqsadida soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimi joriy etilgan. Bir nechta soliqlar to'lash o'rniga yagona soliq to'lovi shakli kiritildi. Yagona soliq to'lovining stavkasi mikrofirma va kichik korxonalar uchun 2014 yili 7 foizdan 6 foizga, 2016 yil boshidan esa 5 foizgacha pasaytirildi (Xudoyberdiyev, 2016). Bundan tashqari, tadbirkorlik sub'yektlarini ro'yxatdan o'tkazishning "bir darchadan" deb nomlangan tezlashtirilgan tizimi joriy etildi, bu esa yangi tuzilayotgan kichik va xususiy korxonalarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi (Xudoyberdiyev, 2016). Ta'lim muassasalari bitiruvchilari bilan mehnat shartnomalarini tuzgan mikrofirmalar va kichik korxonalarga band bo'lgan xodimlar sonining cheklangan me'yordan 20 foizgacha oshirish huquqi berildi (3 yilga) (Xodiyev, 2010).

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida kichik biznes korxonalarida ilmiy tadqiqotlarning yangi natijalaridan samarali foydalanish bo'yicha keng qamrovli ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Mamlakatimizda innovatsiyalarni joriy etgan korxonalar soni yildan-yilga o'sib bormoqda. 2010 yilda bunday korxonalarning soni 156 ta bo'lgan bo'lsa, 2019 yilga kelib 3753 taga etgan (Sodiqova, 2024). Pandemiya uchun bo'lgan vaqt ichida innovatsiya bilan shug'ullanuvchi korxonalar soni barqaror o'sish tendentsiyasini ko'rsatdi. 2022-2026 yillarda ilmiy izlanish tashkilotlari qoshida innovatsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatida yangi innovatsion korxonalar yaratish asosida chet el tajribasini kiritish rejalashtirilgan.

Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda bir qator muammolar mavjud. Moliyaviy resurslarga kirish cheklanganligi, kichik korxonalar uchun kreditlarga erishish va investitsiyalarni jalb qilish murakkab bo'lmoqda. Boshqaruv ko'nikmalarining etishmasligi, tadbirkorlar orasida zamonaviy menejment usullari va biznes-rejalashtirish ko'nikmalari etarli darajada rivojlanmaganligi kuzatilmoqda. Raqobatbardoshlik darajasining pastligi, kichik korxonalar xorijiy mahsulotlar bilan raqobatda qiyinchilikka duch kelmoqda. Ayrim hududlarda kichik biznes uchun zarur infratuzilma etarli emasligi ham muhim muammo hisoblanadi (Isroilov, 2012).

Kichik biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun bir qancha chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Birinchidan, moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, imtiyozli kreditlash dasturlarini kengaytirish va mikromoliyalashtirish institutlarini rivojlantirish zarur (Gov, 2024). Ikkinchidan, ta'lim va trening dasturlarini takomillashtirish, tadbirkorlar uchun zamonaviy boshqaruv usullari, marketing va moliyaviy menejment bo'yicha o'quv kurslari tashkil etish muhim ahamiyatga ega (Xudoyberdiyev, 2016). Uchinchidan, eksport salohiyatini oshirish, kichik korxonalarning xalqaro bozorlarga chiqishini qo'llab-quvvatlash va eksport yo'naltirilgan ishlab chiqarishni ragbatlantirish lozim. To'rtinchidan, innovatsion faoliyatni ragbatlantirish, ilmiy-tadqiqot natijalarini tijoratlashtirish va texnoparklar tarmog'ini kengaytirish kerak. Beshinchidan, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, ro'yxatdan o'tish jarayonlarini soddalashtirish va tadbirkorlarning huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini mustahkamlash talab etiladi.

Xulosa va takliflar.

Xulosa qilib aytganda, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiyotini modernizatsiya qilish va barqaror rivojlantirishning asosiy omillaridan biridir. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda sohani rivojlantirish uchun keng qamrovli qonunchilik bazasi yaratilgan va davlat tomonidan samarali qo'llab-quvvatlash mexanizmlari joriy etilmoqda. Kichik biznes sub'yektlari yangi ish o'rinlarini yaratish, raqobat muhitini shakllantirish, innovatsiyalarni joriy etish va hududlarni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Innovatsiyalarni joriy etgan kichik korxonalar soni yildan-yilga o'sib bormoqda, bu sohaning istiqbolli rivojlanishini ko'rsatadi. Kichik biznes va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish uchun moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, ta'lim dasturlarini takomillashtirish, eksport salohiyatini oshirish va ishbilarmonlik muhitini yaxshilash zarur. Ilmiy tadqiqotlar natijalarini amaliyotga joriy etish va xorijiy tajribadan foydalanish orqali sohani yanada rivojlantirish mumkin.

Adabiyotlar/Jumepamypa/References:

1. Bozorova, O. (2024). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishni nazariy ilmiy asoslari. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. <https://sci-p.uz/index.php/eitt/article/view/707>
2. Sodiqova, R.A. va boshqalar (2024). O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'yektlarining eksport salohiyatini oshirishda innovatsion faoliyatning o'рни. *Iqtisodiy taraqqiyot va tahlil*. <https://www.researchgate.net/publication/384886112>

3. Худойбердиев З.Я. (раҳбар), Хомитов К.З., Муродов А., Кўпайсинова Л.К., Арабов Н.У. (2016). Тадбиркорлик ва ишга жойлаштириш технологияси асослари Касб-хунар коллежлари учун ўқув қўлланма Тошкент "илм-зиё"
4. Ro'ziev, A.I. va boshqalar (2020). O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini rivojlanish jarayonlari. Kiberleninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/zbekistonda-kichik-biznes-va-hususiy-tadbirkorlik-so-asini-rivozhlanish-zharayonlari>
5. Arxiv (2024). Kichik biznes va tadbirkorlik. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/iqtisodiyot/kichik-biznes-va-tadbirkorlik>
6. Mirzaev, Sh. (2019). Tadbirkorlik va biznesning mohiyatini anglash, kichik biznes boshqaruvini takomillashtirish asosidir. Kiberleninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/tadbirkorlik-va-biznesning-mo-iyatini-anglash-kichik-biznes-boshqaruvini-takomillashtirish-asosidir>
7. Ходиев Б.Ю., Қосимова М.С., Самадов А.Н. Кичик бизнесва хусусий тадбиркорлик. Т.: ТДИУ, 2010.
8. Arxiv (2024). Kichik biznes va tadbirkorlik fanining predmeti va vazifalari. <https://arxiv.uz/uz/documents/referatlar/iqtisodiyot/kichik-biznes-va-tadbirkorlik-fanining-predmeti-va-vazifalari-biznes-va-tadbirkorlikni-amalga-oshirish-bos-ichlari>
9. Isroilov, M.X. (2012). Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik – ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning asosi. Kiberleninka. <https://cyberleninka.ru/article/n/kichik-biznes-va-hususiy-tadbirkorlik-izhtimoiy-i-tisodiy-tara-iyotning-asosi>
10. McDougall, P. P., & Oviatt, B. M. (2000). International entrepreneurship: the intersection of two research paths. *Academy of Management Journal*, 43(5), 902-906.
11. Jones, M. V., Coviello, N., & Tang, Y. K. (2011). International entrepreneurship research (1989-2009): A domain ontology and thematic analysis. *Journal of Business Venturing*, 26(6), 632-659.
12. Абдурашул Абдугафарович Собиров. Формирование потенциала предприятия как фактор конкурентного преимущества. (2019). Конференция «Актуальные вопросы экономики и управления на современном этапе развития общества», pages 335-340. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=Fr6x-SIAAAAJ&citation_for_view=Fr6x-SIAAAAJ:2osOgNQ5qMEC
13. Rustam Donyorov, Bekzod Rahmonov, Abdurasul Sobirov. (1991-2016). Mustaqillik yillarida (1991-2016 yillar) O'zbekiston Respublikasining makroiqtisodiy ko'rsatkichlari tahlili. Архив научных исследований. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=Fr6x-SIAAAAJ&citation_for_view=Fr6x-SIAAAAJ:d1gkVwhDpl0C
14. Абдурашул Абдугафарович Собиров. (2019). Основные тенденции применения инновационных технологий в высшем экономическом образовании. Конференция: Современные проблемы права и управления. Pages 81-85.
15. Sobirov Abdurasul Abdugafarovich, Qosimova Dilorom Sobirovna, Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbayevich. (2019). Improvement of the strategy of vertical integration in industrial enterprises. *American Journal of Economics and Business Management*. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=en&user=Fr6x-SIAAAAJ&citation_for_view=Fr6x-SIAAAAJ:u-x6o8ySG0sC&gmla=AH8HC4zYhgBCmN-czp7RdwMqu-2n0v-evdUUVx-Uolj8CAGIJNjHWmFU0wPFjb-mfGUpdSbrWc2fimirvOuzh_lpoO&sciund=3857826585025884694
16. Sobirov Abdurasul Abdugafarovich, Kosimova Dilorom Sobirovna, , Akbarov Nodir Gafurovich,. (2021). Forming a management system of organizational culture of the enterprise. *Natural Volatiles & Essential Oils*, 2021, Vol. 8, No. 4, 4271-4278 ref. 37 ref. <https://www.nveo.org/index.php/journal/article/view/1020>